



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

“Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash va ishlov berish texnologiyasi”
kafedrası

5410500- Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash
texnologiyasi bakalavriat yo`nalishi IV-bosqich talabasi

Yuldasheva Dilnoza Nasriddin qizining

“Sabzavotlarni saqlash texnologik tizimini takomillashtirish” mavzusi
bo`yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: q.x.f.f.d, (PhD) assistent

I.Amanturdiyev

Ilmiy maslahatchi: professor

R.Normaxmatov

SAMARQAND-2018

MUNDARIJA

I. Kirish	
II. Umumiy qism	
III. Asosiy qism.....	
IV. Tayyor mahsulotga qo'yiladigan standart talablar.....	
V. Ekologiya, atrof muxit va xayot faoliyat xavfsizligi.....	
VI. Iqtisodiy qism.....	
VII. Xulosa va takliflar.....	
VIII. Internet ma'lumotlari.....	
IX. Foydalanilgan adabiyotlar.....	
X. Taqdimot va ilova.....	

I. Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda yer sharida insoniyat oldida turgan global masalalardan eng muhimi insoniyatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdir. Inson dunyoga kelishi bilan avvalambor uni oziqlantirsa, ovqat iste'mol qilishi umrining oxirigacha davom etadi. Yer sharida axolini mutassil ortib borishda xisobiga ularni xisobiga ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayrim davlatlarda xatto muammoga aylangan. Xozirgi paytda yer yuzida mlyard axoli to'yib ovqatlanmaydi. Ayrim davlatlarda esa insonni porloq xayot kechiradi. Uchun zarur bo'lgan uchun zarur bo'lgan oziqaviy moddalar yetarlicha iste'mol qilinmaydi. Bu esa barkamol yetuk insonlar bo'lib shakllanishiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yuqorida xisobga olgan xolda mustaqil o'zbekiston rahbariyati axolini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan extiyojini to'la qondirish uchun barcha ishlarni amalga oshirilmogda va bu salbiy xarakterli o'z samarasini beryapti. Respublika rahbariyatini olib borgan oqilona siyosati tufayli davlatimiz don mustaqilligiga to'la erishdi. Va iste'moldan ortiqcha qismi eksport qilinmogda.

Davlatimiz bugungi kunda axolini ortib borayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga extiyojini to'la qondirish uchun, seleksiya ishlari, ishlab chiqarishni moderilizasiya qilish, xamda shakllantirilgan xosilni nobud qilmay yo'qotishlarsiz yig'ishtirib olish ishlariga axolini e'tibor bermogda

Ushbu salbiy xarakterlarda aloxida urg'u beriladigani shu ishlab chiqarishga chiqitsiz texnologiyalarni tadbiq etish va mahsulotlarni saqlash texnologiyalarini takomillashtirishdir. Masalani muximligini e'tiborga olgan xolda biz dinlar loyixasi ishimiz mavzusini "Sabzavotlarni saqlash texnologiyasini takomillashtirish" deb tanlab oldik.

Ma'lumki oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyosini saqlash muammosini dolzarb masala xisoblanadi. Bugungi kunda xisob kitoblarga qaraganda o'rtacha 20-25 foiz xom-ashyo saqlash davrida yaroqsiz xolda kelib qoldi. Bunga asosiy

Raxbar	Amanturdiyev I			
Bajardi	Yuldasheva D			
Uz	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана

sabab, ulardan erkin suvning kulish va bugungi mikroorganizmlar rivojlanishi uchun zarur bo'lgan oziqaviy moddalarning etishtirishdir.

Ishning maqsadi: fermer va dehqon tomorqa xo'jaliklari tomonidan etishtirilgan sabzavotlarni omborxonalarda saqlab arzon, sifatli xom-ashyoni qayta ishlash korxonalarini hamda aholini yil davomida asosiy oziq-ovqat mahsuloti sabzavotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Ishning vazifasi: sabzavotlarni omborxonalarda saqlash jarayonida kechadigan fizikaviy, kimyoviy va mikrobiologik o'zgarishlar hamda saqlash rejimlarining mahsulot sifatiga ta'sirini aniqlash va ularni bartaraf etish.

Demak oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda ularni buzuvchi mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatish zarurdir. Ya'ni sabzavotlarning unishi va kasal chiqaruvchi mikroflorani o'g'xlantiradigan, ayni paytda fitopagen mikroorganizmlardan zararlashga va fiziologik buzulishlariga chidamliligini tushirmaydigan, kimyoviy tarkibi o'zgarishlariga salbiy ta'sir etmaydigan usul hamda ishlov me'yorlarini tanlash zarur. Biz ushbu bitiruv ishimizda yuqoridagi masalalarni hal etishga xarakat qildik.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	<i>Варак</i>	<i>№ хужжат</i>	<i>Имзо</i>		<i>Сана</i>

II. Umumiy qism

Sabzavotlarning ozuqaviy qiymati. Sabzavotlar insonni ozuqlanishida juda katta ahamiyatga xamda davolash xususiyatga ega bo'lgan xush ta'm mahsulot xisoblanadi. Sabzavotlar o'simlik mahsulotlarining maxsus guruxiga kiritilgan bo'lib, o'simlik xosilining asosiy qismini tashkil etadi va ular tanasini asosan, 80-90, ayrim sabzavotlarda: bodring rediska va salatlarda 93-97 foizgacha suv tashkil etadi. Sabzavotlarni suv bilan to'yinganligi bevosita mahsulotning sifat ko'rsatkichi bilan bog'liq-bo'lib ularning turgan xolatini belgilaydi. Agarda sabzavotlar tarkibidagi suv miqdori 5-7 foizgacha pasayib ketsa, shu xaxoti mahsulot tovarlik, ya'ni yashilik va sersuvlik xususiyatini yo'qotadi. Mahsulot qanchalik yosh bo'lsa, uning tarkibidagi suvning miqdori shunchalik yuqori bo'ladi.

Insonlarni oziq ovqat bilan taminlashda suv tarkibida erigan, xazm bo'luvchi, fiziologik faol moddalarning bo'lishi juda muxim xisoblanadi. Ya'ni uglevodlar azotli moddalar, vitaminlar, miniral tuzlar, organik kislotalar, xushbo'y moddalar to'qimalar asosini tashkil etadi. To'qimalarda turli-tuman foydali erigan moddalarning mavjudligini mevalarning xazm bo'lishi jarayonini o'tishida juda muximdir. Shu sababli turli sersuv mahsulotlar parhez va davolovchi vositalar sifatida qo'llanilib kelinadi.

Sabzavot mahsulotlari tarkibiga suvdan tashqari quruq moddalar xam kiradi. Ular mahsulotning 10-20 foizining tashkil etadi. O'z navbatida quruq moddalar suvda eriydigan va erimaydiganlarga ajratiladi. Erimaydiganlar-sellyuloza genitsellyuloza protopektin, erimaydigan azotli birikmalar, miniral tuzlar, kraxmal, yog'larni yorituvchi pigmentlar va unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda kamyob va xam o'zgarishmagan moddalar bo'lib, to'qimaning devorlari va mexanik elektrapegmentlarni tashkil etadi. Barcha ushbu moddalar, asosiy to'qimalarning mexanik pishiqligini, konsistensiyasini ayrim xollarda po'stloq rangini belgilaydi. Sabzavotlarda erimaydigan quruq moddalarning miqdori uncha ko'p bo'lmasdan 2-5 foizni tashkil etadi. Eriydigan quruq moddalar 5 foizdan 18 foizgachani tashkil etib, ularga uglevodlar, azotli moddalar, kislotalar dubil va fenol tabiatli

Raxbar	Amanturdiyev I				001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D					
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

moddalarpektin va vitaminlarning eriydigan xillari, fermentlar, mineral tuzlar va o'lchanilmagan bir qator birikmalar kiradi. Bu guruxni ko'ngilik qismini, asosan uglevod brikmalari, ya'ni qandlar tashkil etadi. Sabzavot mahsulotlarini ahamiyati xar-doim to'qimalardagi eriydigan qandlarni borishi bilan oziqlanmaydi, balki uning to'yimliliigi va xazm bo'lishi uning yuqori xushbo'ylik xususiyatlari, vitaminlar, mineral moddalarni boshqa ozuqa mahsulotlarida yo'qligi va oz miqdordaligi bilan baxolanadi.

Ta'kidlanish kerakki, sabzavotlarni kimyoviy tarkibi xali to'liq o'rganilmagan, ammo bir narsa aniq isbotlangan, u xam bo'lsa sabzavot mahsulotlri inson extiyojiga aylangan, ularni yil davomida yangiligida foydalanish muxim axamiyatga ega bo'lmoqda. Sabzavotlarni rivojlangan mamlakatlarda va davlatlarda iste'mol qilish oxirgi 40-50 yilda jadal suratlar bilan yuqorilab bormoqda. Shu sababli ayrim rivojlangan mamlakatlarda sabzavotlarni iste'mol qilish usuli yuqori bo'lganligi sababli yuksak turmush tarzini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Azotli moddalar. Sabzavotlarning biologik va biokimyoviy faolligini saqlash davrida o'zgaradi xamda ma'lum darajada yetishtirish sharoitlarida aniqlanadi. Maxsulot sifatiga oddiy suv emas inson oziqlanishida zarur, suvda aralashgan ozuqa va fiziologik faol moddalar- uglevod, azotli modda, vitamin, tuz, xushbo'y modda va boshqalar kiradi.

Kuchli aralashish va ko'pchilik komponentlarning birga bo'lishi sababli ularni organizm tomonidan xazm bo'lishi yuqori, shuning uchun ko'pchilik sabzavot mevalar parxez va xatto dori vositasi sifatida ishlatiladi.

Xujayra sharbati sabzavotlardagi umumiy suv miqdorining asosiy qismini tashkil etadi. O'simlik to'qimalari kuchsiz bog'langan bo'lib quritishda yengil bog'lanadi. O'simlik to'qimalari kuchsiz bog'langan bo'lib, quritishda yengil bog'lanadi. O'simlik tuzilmalari suvning kam qismi o'simlik kolloidlari tomonidan mustaxkam ushlab turiladi va so'ng yo'qoladi. U xujayra sharbatidagi "erkin" suvdan farqi "bog'langan" deb ataladi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

Sabzavotlar kimyoviy tarkibining qolgan qismini suvdan tashqari quruq moddalar tashkil etadi. Ularning miqdori o'rtacha 10-20 foizgacha tashkil etadi. O'z navbatida quruq moddalar suvda aralashmaydiganlarga bo'linadi. Aralashmaydigan quruq moddalar – bular asosan, xujayra va to'qimalarga klechatka, yarim kletchatka, propektin, shuningdek aralashmaydigan pigment va boshqalarni tashkil etadi. Ular asosan to'qimalarni mexanikbazida po'st rangini belgilaydi. Sabzavotlardan quruq moddalar amalda organizmda xazm bo'lmasada, lekin ular foydali, masalan: Kletchatka xazm bo'lmaydi. Ammo oshqozon-ichak traktini yaxshi ishlashi va sharbat ajralishini ta'minlaydi.

Aralashadigan quruq modda xujayra sharbatida bo'ladi. Ularning miqdori o'rtacha, 5-18 foizgacha etadi. Aralashadigan quruq moddalar miqdorining yig'indisi ko'pincha refraktometr yordamida aniqlanadi. Aralashadigan quruq moddalar uglevod, kislota, osh lavlagi va fenol tabiatli boshqa moddalar, pektin va vitaminlarning aralashadigan shakllari fermentlar, ma'danli tuzlar va boshqalar kiradi.

Ularning aksariyat qismi, asosan qandlardir. Qolgan moddalar usuli xujayra sharbatida kamligiga qaramasdan, ko'pchiligining oziq-ovqat xamda texnologik jixatidan ahamiyati sezilarlidir.

Qandlar umumiy yo'nalishi mazmuni shundan iboratki monosaxaridlar miqdori oksidlanish jarayonida ishlatilishi natijasida asta-sekin kamayadi. Ammo nok, olma va boshqa urug'li mevalarning qishki navlarini saqlashning 1-2 oylarida qandlar miqdori nafaqat kamayishi, balki, polisaxaridlar, jumladan, krahmalning gidrolitik o'zgarishi natijasida birmuncha ortishi mumkin.

Mevalarni saqlashda, birinchi navbatda, saxaroza miqdori kamayadi. Bu saxarozaning nafas olish jarayonida oksidlanish jarayonida jalb etiladigan modda ekanki taxlil etish imkonini beradi. Bir qator olimlar mevalar tarkibida saxaroza tugaguncha saqlashga qodir deb xisoblashadi. Saqlashda monosaxaridlar miqdorining yig'indisi bir muncha kamayadi. Ammo glyukoza va fruktoza o'rtasida yig'indisining foydasiga o'zgarishi o'ziga xosdir. Bu o'z yo'lida olma va nokning qishki navlarning saqlash muddatining oshishiga olib keladi.

Raxbar	Amanturdiyev I				001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D					
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Saqlashda qand shakllarining nisbat o'zgarishi boshqa mevalarda jumladan, olxo'ri, shaftoli, o'rik ta'mini yaxshilashga sabab bo'ladi. Ammo uzoq saqlash mobaynida barcha mevalarda qand miqdori kamayadi, natijada, ularning ta'mi, sifati keskin yomonlashadi.

Ko'pincha sabzavotlarning qiymati nafaqat kalloriyali va jamg'armaning oziq-moddalar bilan emas, balki boshqa mahsulotlarda kam uchraydigan yoki umuman o'zgarmaydigan xushbo'y ta'm xususiyatlari vitamin ma'danli moddalar bilan ifodalanadi. Sabzavotlar inson oziq-ovqatining yil davomida tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Xozirgi davrda sabzavotlarni, ayniqsa, sitrus, uzum, tomat mahsulotlarini iste'mol qilishi ortib bormoqda. Ularning oziqlanishidagi umumiy o'sishi farovonlik ko'rsatkichi va sog'liqni saqlash garovidir.

Sabzavotlarda qand miqdori meva va rezavor mevalarda qaraganda juda kam. Asosiy sabzavotlarda o'rtacha qand miqdori quyida keltirilgan (qandlar yig'indisi foiz) ;

Qovun 7-17

Tarvuz 6-10

Sabzi 6-8

Piyoz 5-10

Oq boshli karam 3,5-4,0

Pomidor 3,5 -4,0

Sabzavot garimdori 3,0-4,0

Sabzavotlar yetishtirishda ko'pincha qand miqdori o'zgarishi kuzatilsada, ularning umumiy miqdori taxminan bir-xil bo'lishi mumkin. Masalan, xosil yigilgandan keyin olmaning qishki navlari mevalar yetishida fruktozaning miqdor nisbati ortib va shirinlashgan sari kislota miqdori kamayib boradi. Qand modda almashinishiga katta ahamiyatga egadir. U nafas olishda, quvvat va katta miqdorda oraliq mahsulotlar boradi. Shuningdek sabzavot kurtaklari differensiyasi jarayonlari, mevalar yig'ilgandan keyin yetishdi, ularning fitorogen mikroorganizmlarda chidamliligi xamda turli biosentezlar uchun foydalaniladi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

Kraxmal yuqori molekulari polisaxarid xisoblanadi, uning molekulari katta miqdoridagi glyukoza qoldiqlaridan iboratdir. Kraxmaldan gidroliz yo'li bilan spirt kauchuk va boshqa mahsulotlar olinadi. Kraxmal-kartoshka tuganaklarida asosiy modda xisoblanadi, 15-16 foizni tashkil etadi. Boshqa sabzavot va mevalarda uning miqdori ko'p emas. Kartoshkaning oziq-ovqatlik xususiyatlari kraxmal miqdori bilan bog'liq. Tuganaklarda qancha kraxmal ko'p bo'lsa, shunchalik qaynatilgan kartoshkani unumdorligi yuqori bo'ladi. Kraxmalning zichligi 1,5-1,6 ga teng. Kraxmal suvda aralashmay, sekin cho'kadi. Isitilganda kolloid aralashma kraxmal kleysteri yuzaga keladi.

Kraxmalning kimyoviy tarkibi bo'yicha xilma-xil bo'lib, masalan, kartoshka kraxmali 19-22 foiz quyi molekular amilaza va 78-91 foiz yuqori molekular amilopektinlardan iborat. Kraxmal plastik va energetik ehtiyoj material xisoblanib, xayot faoliyati jarayonlarida, masalan, kartoshka tuganaklarini saqlash vaqtida ishtirok etadi. Quyi xaroratda ayniqsa, salbiy xaroratdagi kartoshka kraxmal qandga o'tadi. Bunday kartoshkaning texnologik xususiyatlari yomonlashadi, undan faqat to'q rangli chipslar qovirilganda chirisillaydigan kartoshka olinadi.

Organik kislotalar – sabzavotlarning muxim tarkibiy qismidir. Ular muxim ahamiyatga ega bo'lib, moddalarning aloxida guruxlarini bog'lab, modda almashinishiga muxim o'rin tutadi. Ko'pchilik moddalarning o'zgarishi tinim davrida o'tishi, yetilishi, chidamliligi va fiziologik buzilishlariga bog'liq bo'ladi. Sabzavot va mevalarning nordonligi ularning konservalashda sterilizatsiyalash rejimi darajasini tanlashga bog'liqdir. Ma'lumki mikroorganizmlar nordon muxitda tez nobud bo'ladi, shuning uchun meva va rezavor mevalarni sterilizatsiyalashda 80-85°C xarorat kifoya, kam nordon sabzavotlarni sterilizatsiyalash uchun esa yuqori xarorat zarur. Meva va rezavor mevalar nordonligi sabzavotlarga qaraganda ancha yuqori. Shovil, rovoch va pamiyor ajralib, nordonlik bilinib turadi. Kislotalar umumiy miqdori mahsulotni nordonlik darajasini aniq tariflaydilar. Insonni organik kislotalarga bir kunlik talabi 2 gr bo'lib, asosan meva, rezavor meva tuzlangan nordon mahsulot va musallas bilan qoniqtiradi. Qand va kislotalar nisbati ma'lum darajada meva va rezavor mevalar ta'mini tashkil etadi. Bu

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

nisbatning miqdorini nordonlash uchun qandning miqdorini kislotaning faoliyati miqdorini bo'lish kerak, shirin va nordon ta'mini qoplashni taxminan iste'molga xis etiladigan qand va kislotaning minimal quvvatlari munosabatlariga qarab xisoblash mumkin. Turli kislotalar uchun nordon ta'mli limon 0,0154, olma 0,0107 vino 0,0075 foizni tashkil etadi.

Glikoliz va fenol birikmalari. Glikolizidlar. Xususan glikolizidlar qandlarning spirtli birikmalari bo'lib, ularga ana boshqa moddali birikmalar, masalan fenol, oltingugurtli azotlar kiradi. O'simliklarda glyukozidlar keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha ularning o'ziga xos xushbo'yligiga shuningdek, fitopotologen, mikroorganizmlarga qarshi chidamliligiga sabab bo'ladi.

Fenol birikmalari. Ular sabzavotlarda keng tarqalgan glyukozid shaklida, erkin xolda esa kam uchraydi. Sabzavotlarning fitopogen mikroorganizmlar ta'mi va xushbo'yligi xamda rangini chidamliligini oshiradi. Ba'zilari vitaminlik xususiyatiga ega.

Fenol birikmalarining xushbo'ylik xalqalariga qarab ajratiladi va sabzavotlar tarkibida oz miqdorda uchraydi 0,01-2 foiz.

Oshlovchi moddalar. Meva va rezavorlarda ko'proq, sabzavotlarda kamroq tarqalgan. Aralashmalarda oqsilni cho'ktiradi, suvda aralashadi.

Yopishqoq xususiyatiga ega, o'ziga xos ta'xir ta'mni beradi. Sabzavotlarning bir-qator xamda texnologik xususiyatlarini belgilaydi. Konservlashda Sharbat va vino tayyorlashda katta axamiyatga ega, ular oqsil va kolloid ko'rinishidagi boshqa moddalarni cho'ktirish bilan mahsulotni tindirish qobiliyatiga egadir. O'ziga xos ta'm va xushbo'ylikka vinolarda dubil moddalarning oksidlanish orqali erishiladi.

Fenol moddalar sabzavotlarni saqlashda katta axamiyatga ega bo'lib, tinim xolatni boshqaradi va fitopogen mikroorganizmlarga bo'lgan chidamliligini oshiradi.

Efir moylari. Yog'ga aralashgan uchuvchan moddalar xisoblanib, sabzavotlarga xushbo'ylik baxsh etadi. Efir moylarining fiziologik vazifasi xozircha aniqlashmagan, ammo uning miqdori ortishi o'simlikning o'sishi va organlari etilishi bilan bog'liq. Ba'zilari mikroorganizmlar ko'pavishining oldini

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		

oladigan antibiotik xususiyatiga ega. Efir moylari parfimeriya, oziq-ovqat qandolat, spirtli ichimliklar sanoatida ko'pincha modda sifatini ishlatiladi. Efir moylari faqat o'simliklarda yuzaga keladi. Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan 200 ga yaqin xushbo'y moddalar-yasmin, landishva boshqa o'simliklardan olinadi. Ko'pchilik sabzavotlarda efir moylari mavjud bo'lsada ammo sitrus mevalari va ba'zi sabzavotlarda ukrop zira va boshqalarda ularning miqdori yuqori, o'simliklardagi bakteridsit ta'sirli moddalar fitotsidlar deyiladi. Ular piyozda allelsik xren va trupda lizotsik, achchiq qalampirda petrushkada, selderey va ukrop.

Sabzavot maxsulotlari, shuningdek sarimsoq, xren, tuzlangan va sirkalangan mahsulotlarga nafaqat o'ziga xos ta'm va xushbo'ylik beradi.

Yog'da aralashadigan pigmentlar. O'simlik organizmlarda xayot uchun zarur bo'lgan fiziologik faoliyatni boshqaradigan moddalar guruxidir. Ular shuningdek, antisionlar bilan birga sabzavotlarning rangini belgilashda ishtirok etadi.

Mum, yog' va alkaloidlar. Mumlar ximoya vazifasini bajaradi. Jumladan o'simlik organizmlaridagi namlikni bug'lanishni va fitogen mikroorganizmlari kirishidan saqlab, suv bilan yuvilishidan, parenxim to'qimalaridan mexanik shikastlanishidan ximoya qilinadi. Ammo ko'pincha sabzavot va mevalarning ennermis qatlamidagi mumli ximoya to'sig'i bo'sh rivojlangan va ximoya vazifasini samarali bajara olmaydi. Saqlash amaliyotida isrofn kamaytirish maqsadida mevalar yuzaga mum va moyli emursiyalash seziladi, maxsus tarkibli gidrofol klyonkalar yopiladi.

Mevalar po'stini qoplovchi mumlar yog'simon kimyoviy ko'rinishi bo'yicha atomli spirt va yog' kislotalardan iborat murakkab efirli moddalardir. Ularning tarkibiga boshqa yuqori molekulyar uglevodlar xam kirishi mumkin. Barcha mumlar kimyoviy jixatdan chidamli bo'lib, oddiy xaroratda kuchli organik eritmalarda xam yomon aralashadi. Ular faqat qaynoq ishqorlarda yaxshi aralashishi bois olxo'ri, uzumi quritishda foydalaniladi. Qaynoq ishqorda ishlov berilgan xom-ashyo satxidagi mum qatlami parchalanishi natijasida tez quriydi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

Yog'lar. Ular sabzavotlarda kam uchrab, asosan mum bilan birga bo'ladi. Yog'lar kun miqdorda urug'larda uchraydi. Danakli mevalarning mag'ziga, poliz urug'larida o'rtacha 20-60 foizni tashkil etadi.

Alkoloidlar. Xayvon va inson organizmiga kuchli fiziologik ta'sirga ega azotli o'simlik moddadir. Sabzavotlarda bunday birikmalar kam uchraydi.

Shuning uchun sabzavotlarning ustki qavati yoki yon tomonlari terlaydi. Mahsulotlar terlaganda tez buziladi, chunki ularning sirtidagi namlik mikroorganizmlar rivojlanishiga imkon beradi. Yangi sabzavot meva va uzumlarni saqlashda past xarorat ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sabzavotlarni sovitgichlarda saqlashda sun'iy usulda ventilyasiya yordamida, tashqi xavo bilan esa ta'biy usulda sovitiladi. Xujayralarning suvsizlanib qolishi oqsillar va plazmaning boshqa kolloidlarining qaytarilmaydigan natijasida muzlatish vaqtida mevalar nobud bo'ladi. Mexanik shkastlanishlar sovuqda kengayib nobud bo'lishini tezlashtiradi.

Biokimyoviy jarayonlar. Xom va yaxshi yetilgan mevalarda bu xolat turlicha kechadi. Yetilgan mevalar saqlangan vaqtida ular qimmatli ozuqa ta'mini belgilovchi moddalar to'planmaydi, aksincha parchalanadi. To'liq yetilmasdan terilgan mevalarda esa ancha vaqtgacha bu moddalar to'planib boradi, so'ngra parchalanish boshlanadi. Mevalar yetila borgan sari ular tarkibidagi qandning miqdori ortib, kislota va oshlovchi moddalar kamayib boradi. Bundan tashqari, xushbo'y moddalarning to'planishiga sarflanadi.

Qandlar meva tarkibida kraxmalning gidrolizlanishi glyukozid, va pektinlarning parchalanish xisobiga ko'payadi. Uning turlari nisbati o'zgarib turadi. Boshlangan vaqtda ma'lum muddatgacha amilaza va fruktozaning ortishi xisobiga ko'payadi. Saxaroza to'planadi, so'ngra saxaroza kamayayotgan xolda yo'qolib ketadi va inversiyalangan qand orta boshlaydi. Yetilmagan mevalarda qand kam to'planadi. Yetishmaganlarda mevalarning shirinligi inversiyalanadi, xosil pishib o'tib ketsa, uning nafas olishi xisobiga qand miqdori kamayib ketadi. Saqlash vaqtida sabzavotlar tarkibidagi kislotalar qandlarga nisbatan tez parchalanadi. Buning natijasida qand va kislotalar qandlarga nisbatan tez parchalanadi. Saqlanishning oxiriga borib, mevalar ancha shirin, kislotalar yo'qolishi natijasida

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

bemaza bo'lib qoladi. Ombordagi xarorat qancha yuqori bo'lsa, kislotalarni parchalanishi shunchalik tezlashadi.

Tarkibidagi kislotalar ko'p mevalarda limon kislotasi, tarkibidagi kam mevalarda olma kislotasi ko'p bo'ladi. Uning miqdoriga qarab mevalar kam, o'rta, ko'p va juda ko'p guruxlarga bo'linadi. Birinchi guruxga yer-tuti, nok, anjir, xurmo. Ikkinchi guruxga-olma, shaftoli, gilos, uzum, maymunjon: uchunchi guruxga-olxo'ri, olcha, qorag'at; to'rtinchi guruxga-qarag'ay, anor va limon kiradi. Saqlash davrida oshlovchi modalar tezda kamayib ketadi. Bu ularning erimaydigan xolda o'tishi yoki koloidlarning quyushishiga bog'liq.

Xarakatning ko'tarilishi bilan oshlovchi moddalarning parchalanishi tezlashadi. Mevalar yetilib borishi bilan pektin moddalarni to'plab boradi va terishga yaroqli bo'lganda yuqori darajaga yetadi shu vaqtdan boshlab ular, parchalanib, eruvchi pektin xosil qiladi, natijada mevalar yumshab qoladi. Bu jarayon mevalarning o'rta qismidan tashqi qismini tamom boradi. Parchalanish natijasida meva eti qoraytirib boradigan metil spirti xosil bo'ladi.

Uzum so'liganda pektin to'planadi. Naviga xos qoplama rangga ega bo'lmagan mevalar yaxshi saqlanmaydi, qoplovchi rang bo'lmaslik mevaning yomon eriganidan dalolat beradi. Xushbo'y moddalar mevalarni saqlash vaqtida uchib ketadi. Yoki fermentlar ta'sirida boshqa birikmalarga aylanadi. Xosil to'liq pishgan vaqtida ularning o'ta ko'payishi aniqlangan. Xarorat past bo'lganda mevalar kam xushbo'y bo'lsa, u ko'tarilgan sari xushbo'yliги xam ortib boradi. Saqlash vaqtida ba'zi mevalarda efir moddalar oksidlanib, ta'mi buziladi. Eti yopishqoq qora uyumga aylanib qoladi. Mikroorganizmlar tomonidan zararlanishi xam ulardagi moddalarning kamayishiga sabab bo'ladi. Xosil yetilishi paytida ularning po'stidagi mum yuqori ko'payadi. Pishib o'tib ketsa, ayniqsa, qalinlashib, ushlab ko'rilganda yog'likka o'xshab qoladi. Agar mum yuqori to'kilib ketsa, suv tez bug'lanadi va meva so'lib qoladi.

Sabzavotlarni saqlash vaqtida ular tarkibidagi azotli moddalar, qand va kislotalarning miqdori o'zgaradi. Saqlash davrida sabzavotlarning tarkibidagi vitaminlar miqdori kamayadi. Erta pishar navlardagi vitaminlar kech pishadiganiga

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

qaraganda tez yo'qoladi. Sabzavotlarni saqlash va xaroratining yuqori bo'lishi, xavoning ko'p tushib turishi gidroletik jarayonlar sintetik xolatlardan ustun keladi. Natijada polisaxarid va disaxaridlar miqdori kamayadi. Oksidlarning bir qismi gidrolizlanadi. Vitamin va xushbo'y moddalar miqdori kamayadi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

III. Asosiy qism

3.1. Sabzavotlarda nafas olish jarayonining mahsulot sifatiga ta'siri

Sabzavotlarni saqlash jarayonida ularda xilma – xil o'zgarishlar sodir bo'ladi. bularga sabzavotlarning saqlaganda yetilishi, nafas olishi, kimyoviy, fizikaviy o'zgarishlar va mikrobiologik o'zgarishlarni kiritish mumkin.

Sabzavotlarning tirik biologik obyekt sifatidagi xususiyatlaridan biri, saqlaganda ularda yetilishi va nafas olish jarayoni hisoblanadi. Ba'zi bir sabzavotlarni saqlaganda ular ma'lum bir fiziologik tinim davrini o'taydi. Masalan, kartoshka va ildiz mevali sabzavotlarda shunday tinim davri mavjuddir.

Sabzavotlarni saqlaganda boradigan jarayonlardan biri, ularning nafas olish jarayonidir. Nafas olish jarayonida fermentlar ishtirok etganligi uchun bu jarayonni biokimyoviy jarayon deb atash mumkin.

Ma'lumki, har qanday tirik organizmning hayoti doimiy ravishda katta miqdordagi energiya sarfi bilan bog'liqdir. Bu energiya organizmda boradigan har xil sintetik reaksiyalar, o'sishi va rivojlanishi hamda modda almashinuvi uchun zarurdir. Tirik organizmlar uchun energiya manbai bo'lib fotosintez va nafas olish jarayonlari hisoblanadi.

Nafas olish–bu uglevodlar va boshqa organik moddalarning fermentlar ta'sirida oksidlanib, suv va karbonat angidrid gazini hosil qilishidir. Nafas olish jarayonini quyidagi kimyoviy reaksiya asosida izohlash mumkin:



Reaksiyadan ko'rinib turibdiki, 1 gramm molekula (180 g) sarf qilingan glyukozadan 674 kkal energiya ajralib chiqadi.

Zamonaviy mikroskoplar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, hujayra protoplazmasi–mitoxondriy organlari hujayraning energiya manbai hisoblanadi. Bu erda organik moddalarning oksidlanishidan hosil bo'lgan energiya har xil shaklda zahiraga aylanadi, ma'lum bir qismi esa issiqlik sifatida atrof–muhitga beriladi. Tirik hujayralarda energiya adenozintrifosfor kislotasi

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана


(ATF) tarzida zahiraga boradi. ATF esa kuchli makroenergetik bog'liqlikka ega bo'lgan birikmadir. Nafas olishning ahamiyati faqatgina energiya ajratib chiqarishdan iboratgina emas. Nafas olish jarayoni ketma-ket oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan tashkil topgan uzun zanjirdan iboratdir. Bu erda organik moddalarning ketma-ket oksidlanishi ro'y beradi va natijada ko'pdan-ko'p oraliq moddalar hosil bo'ladi. Bu oraliq moddalar turli xil kimyoviy faollikka ega bo'lib, ana shulardan hujayralarning hosil bo'lishi va yangilanishi uchun zarur bo'ladigan moddalar hosil bo'ladi.

Shuningdek, nafas olish jarayoni organizmning mikroorganizmlarga qarshi himoyasida ham muhim jarayon hisoblanadi. Buning boisi shundaki, nafas olish jarayonida hosil bo'lgan oraliq moddalardan mikroorganizmlar fermentlari va toksinlariga qarshi ta'sir ko'rsatadigan moddalar sintez bo'ladi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, nafas olish jarayonida hosil bo'lgan energiyaning 70–80% atmosferaga issiqlik energiyasi sifatida tarqaladi. M.V.Antonov ma'lumotlariga qaraganda, bir sutkada haroratning darajasiga qarab 1 tonna mahsulotni saqlaganda issiqlik ajratib chiqarishi sabzavot mahsulotlari uchun quyidagicha:

1. Kartoshka uchun 275 – 440 kkal (1152 – 1843 kDj);
2. Sabzi va lavlagi uchun 200 – 500 kkal (837 – 2093 kDj);
3. Bosh piyoz uchun 165 – 500 kkal (690 – 2093 kDj);
4. Ko'katlar uchun 300 – 2000 (1256 – 8380 kDj).

Agar sabzavotlar kislorod etishmaydigan (2% dan kam bo'lgan) sharoitda saqlansa yoki havoda umuman kislorod bo'lmagan sharoitda saqlansa, u holda hujayralarida kislorodsiz nafas olish jarayoni ro'y beradi. Bu jarayonni intramolekulyar nafas olish jarayoni deb yuritiladi. Bu jarayonning borishini quyidagi formula bilan izohlash mumkin:



Demak, bu erda sarf etilgan 1 gramm molekula glyukozaning oksidlanishidan 28,2 kkal miqdorida energiya hosil bo'ladi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Baiardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		

Kislorodsiz nafas olish jarayonida hujayralarda spirt, asetaldegid, sut, sirka kislotasi singari to'liq oksidlanmagan moddalar hosil bo'lib, plazmaga, hujayralarga halokatli ta'sir ko'rsatib, hujayralarning o'z-o'zidan zaharlanishini keltirib chiqaradi. Bu jarayonning ro'y berishining maqsadga muvofiq emasligi yana shu bilan izohlanadiki, bu erda hosil bo'lgan energiya kislorodli nafas olishdagiga nisbatan 24 marta kamdir. Demak, nafas olishga sarf bo'ladigan organik moddalar miqdori ham ancha ko'p bo'ladi.

Shu sababli sabzavotlarni saqlaganda omborxonalarda namlik, haroratdan tashqari gaz muhitiga ham alohida e'tibor berilishi talab etiladi.

Sabzavotlarning nafas olish koeffitsiyenti ma'lum darajada nafas olishga qanday modda sarf bo'layotganligi va nafas olish jarayoni kislorodli yoki kislorodsiz ekanligidan dalolat beradi.

Sabzavotlarning nafas olish intensivligi xilma-xil va unga meva va sabzavotlarning fiziologik holati, tashqi muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi 1-jadvalda sabzavotlarning nafas olishi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan:

1-jadval

Sabzavotlarning nafas olish intensivligi (1 kg mahsulotni 15⁰C da 1 soat davomida ajralib chiqadigan gazlar miqdori)

T/r	Tadqiqot obyektlari	Ba'zi meva va sabzavotlarning nafas olish ko'rsatkichlari		
		O ₂ ni yutishi	CO ₂ ni chiqarishi	$\frac{CO_2}{O_2}$ nisbati
1	Kartoshka	9,4	10,1	1,08
2	Bosh piyoz	12,0	12,7	1,06
3	Sabzi	16,1	17,3	1,07

Nafas olish intensivligi sabzavotlarning umumfizikaviy holatiga ham bog'liq bo'ladi. Etilib pishmagan, xomroq sabzavotlarning nafas olish intensivligi pishgan meva va sabzavotlarning nafas olish intensivligidan ancha yuqoriroq bo'ladi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		

Sabzavotlar hosil yig'ishtirib olingan kunning boshlarida intensiv nafas oladi, so'ngra bu jarayon sekinlashib, qishda minimum darajada bo'ladi. Sabzavolarda nafas olishning eng yuqori davrini klimakterik davri deb yuritiladi. Bunday keyin sabzavotlar pishib ketadi va natijada ularning mikroorganizmlarga bardosh berish qobiliyati ham keskin kamayadi.

Bahor oyiga kelib kartoshka, piyoz, ildiz mevali sabzavotlar, karamlar o'sib boshlaydi, aynan shu davrda sabzavotlarning nafas olishi intensivlashadi. Shuningdek, sabzavotlarni terish, saralash va tashish jarayonlarida ularning mexanik jarohatlanishi ham nafas olish intensivligini oshiradi.

Tashqi omillardan sabzavotlarning nafas olish intensivligiga harorat ham katta ta'sir ko'rsatadi. Haroratning ko'tarilishi bilan sabzavotlarning nafas olish intensivligi oshadi.

Ssabzavotlarni saqlaganda nafas olish intensivligiga ta'sir ko'rsatadigan ikkinchi muhim omil atmosferada bo'ladigan CO₂ va O₂ gazlarining miqdori hisoblanadi. Sabzavotlarni qamrab turgan havoda CO₂ gazi konsentrasiyasining ortishi va O₂ gazining kamayishi nafas olish intensivligini pasaytiradi.

Shuningdek, yorug'likda saqlangan sabzavotlarda ham qorong'i xonalarda saqlangan sabzavotlarga qaraganda nafas olish jarayonini intensiv bo'lishi aniqlangan. F.V.Serevitinov ma'lumotlariga qaraganda 0°C da 4–5 oy davomida saqlangan kartoshkalarda kraxmal miqdori dastlabki miqdoriga qaraganda 8% ga kamaygan bo'lsa, 13°C da saqlanganda esa 29,6% ga kamaygan. shu sababli sabzavotlarni optimal past haroratda saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3.2. Sabzavotlarni saqlaganda bo'ladigan kimyoviy o'zgarishlar

Sabzavotlarni saqlaganda ro'y beradigan kimyoviy jarayonlarning asosiy yo'nalishi bu murakkab organik birikmalarning oddiy birikmalarga gidrolitik parchalanishi hisoblanadi. Bu o'zgarishlar asosan uglevodlar guruhiga tegishlidir. Aynan uglevodlar ularda zahira sifatida to'planadi.

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	<i>Варак</i>	<i>№ хужжат</i>	<i>Имзо</i>		

Kraxmal gidrolizga borib, avval saxarozaga, keyin esa glyukozaga gidrolizlanadi. Natijada sabzavotlar tarkibida kraxmal va saxaroza kamayadi, monosaxaridlar miqdori esa ancha ortadi. Ba'zan sabzavotlar tarkibida kraxmal va saxaroza umuman qolmasdan, monosaxaridlarga gidrolizlanib ketishi ham mumkin. Sabzavotlarni saqlaganda nafas olish jarayoniga asosan uglevodlar sarf bo'lganligi sababli, ularning umumiy miqdori kamayadi.

Sabzavotlarni saqlash jarayonida nafas olish jarayonlariga nafaqat uglevodlar, balki organik kislotalar ham sarf bo'ladi. Natijada qandning kislotaga nisbati koeffitsiyenti oshganligi sababli, sabzavotlar shirin ta'mga ega bo'lib qoladi.

Sabzavotlarni saqlaganda ularning tarkibidagi pektin moddalarida ham chuqur o'zgarishlar ro'y beradi. Bunda ma'lum hujayralarni birlashtirib turuvchi protopektin moddasi gidrolizlanib, suvda eruvchan pektin moddasini hosil qiladi. Natijada hujayralar orasidagi bog'liqlik pasayadi, bu sabzavotlar konsistensiyasining yumshashini keltirib chiqaradi.

Sabzavotlarni saqlaganda oqsil moddalarida ham o'zgarish yuz beradi. Bunda azotli moddalarning umumiy miqdori o'zgarishda, lekin suvda eruvchan oqsil moddalari miqdori birmuncha ortadi.

Polifenol moddalari ham qisman nafas olishga sarflanadi, qisman oqsil moddalari bilan reaksiyaga boradi. Sabzavotlarni saqlaganda ularning umumiy miqdori kamayganligi uchun ham og'izni burishtiruvchanlik xususiyati ham pasayadi.

Sabzavotlarni saqlaganda, ularning tarkibidagi vitaminlarda ham o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar asosan kamayish tendensiyasiga egadir. Ilmiy tadqiqotlar shunday dalolat beradiki, kartoshka, sabzi, karam va boshqa sabzavotlarni 5–7 oy davomida saqlaganda, ularning tarkibidagi C vitamin miqdori 30–50% gacha kamayadi. Lekin, saqlanuvchanligi yaxshi bo'lgan sabzavotlarda C vitamini miqdori, saqlanuvchanligi yaxshi bo'lmagan sabzavotlarga qaraganda birmuncha yuqori bo'lishi aniqlangan.

Shu bilan bir vaqtning o'zida sabzavotlarni saqlaganda yangi moddalarning hosil bo'lishi ham kuzatiladi. Masalan, sabzavotlarning etilishi davrida aromatik

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

moddalar, murakkab efirlar yangidan sintez bo'ladi. Kartoshkalarda esa kraxmal qandga aylanishi bilan bir qatorda, kraxmalga resintez bo'lishi ham kuzatiladi. Ba'zi sabzavotlarni (kartoshka, piyoz) saqlaganda o'sishida C vitaminining yangidan hosil bo'lishi ham kuzatilgan.

3.3. Sabzavotlarni saqlaganda bo'ladigan fizikaviy o'zgarishlar va ularning mahsulot sifatiga ta'siri

Sabzavotlarni saqlaganda, ularda ro'y beradigan asosiy fizikaviy jarayonlarga suvning bug'lanishi, issiqlik ajralib chiqishi, temperaturaning o'zgarishi kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

Suvning bug'lanishi. Sabzavotlar suvga boy hujayralar o'lchami katta bo'lganligi, ularda kolloid moddalar (oqsil) kam bo'lganligi uchun suvni tutib turish qobiliyati juda past. Bu esa ulardan suv tezda parlanib ketishini ta'minlaydi.

Sabzavotlarning suvining yo'qotilishi maqbul jarayon emas. Chunki, ular suvini yo'qotib, so'lib qoladi. Bu esa sabzavotlarning sifatining pasayishiga sabab bo'ladi. Sabzavotlarning so'lib qolishi nafas olish jarayonining intensivligini oshiradi, natijada nisbatan ko'p miqdordagi ozuqaviy moddalar nafas olish jarayoniga sarf bo'ladi.

Sabzavotlardan suvning bug'lanishi anatomik tuzilishiga, fiziologik holatiga, kimyoviy tarkibiga, jarohatlarning bor yoki yo'qligiga, biokimyoviy jarayonlarning tezligiga, shuningdek tashqi omillar – harorat, havoning nisbiy namligi, shamollatilishi kabilarga bog'liq bo'ladi.

Pishgan sabzavotlar, to'liq yetilib pishmagan sabzavotlarga qaraganda kam miqdorda suv yo'qotadi, chunki pishgan sabzavotlarning tashqi po'stlog'i to'liq shakllangan bo'ladi va ularni suvning bug'lanishidan himoya qiladi.

Omborxonalarda havo haroratining ortishi va nisbiy namlikning pasayishi ham sabzavotlardan ko'p darajada suvning bug'lanishiga olib keladi.


Asosiy sabzavotlar turini saqlashning har xil davrlarida suvning parlanib ketishi bo'vicha ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan:

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Baiardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		

Asosiy sabzavotlarni saqlaganda suvning bug'lanishi

T/r	Sabzavotlarning turi	1 tonna sabzavotni 1 sutka saqlaganda ajralib chiqadigan suv miqdori, gr		
		kuzda	qishda	bahorda
1	Kartoshka	290	270	290
2	Karam	800	630	700
3	Sabzi	550	270	480
4	Lavlagi	650	280	480
5	Piyoz	480	210	420

Issiqlik ajralishi. Sabzavotlarni saqlash jarayonida issiqlik ajralib chiqadi. Shu ajralib chiqqan issiqlikning ma'lum bir qismi havoga chiqarilsa, ma'lum bir qismi esa ATF larda kimyoviy bog'langan energiya holida zahiralanadi. Buning kimyoviy reaksiyasi esa quyidagicha:



Ajralib chiqayotgan CO₂ miqdoriga qarab, qancha issiqlik ajralib chiqqanligini hisoblash mumkin bo'ladi.

Sovuqlik bo'yicha xalqaro institutning ba'zi sabzavotlarni saqlaganda issiqlik ajratishi haqidagi ma'lumoti 3-jadvalda keltirilgan:

Raxbar	Amanturdiyev I				001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D					
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

Sabzavotlarni saqlaganda issiqlik ajralishi

T/r	Sabzavotlarning turi	1 tonna mahsulotni 1 sutka davomida har xil haroratda saqlaganda ajralib chiqadigan issiqlik, kkal				
		0°C	2°C	5°C	10°C	20°C
1	Kartoshka	380	360	320	400	700
2	Oqboosh karam	400	480	650	920	2400
3	Sabzi	390	570	690	730	2300
4	Bosh piyoz	320	340	430	580	1080
5	Pomidor	360	370	470	750	2000

Haroratning o'zgarishi. Tabiiyki, nafas olish jarayonida ajralib chiqqan issiqlik miqdori, sabzavotlarning temperatura holatiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Lekin, saqlash davomida sabzavotlarning sovishi va isishi, asosan tashqi muhitning harorati ta'sirida ro'y beradi.

3.4. Sabzavotlarni saqlaganda bo'ladigan mikrobiologik o'zgarishlar va ularning mahsulot sifatiga ta'siri

Har xil sabzavotlarni saqlash davomida mikroorganizmlar va fiziologik kasalliklarga bardoshlilik bilan bir – biridan farq qiladi. Bu yerda sabzavotlarning mikroorganizmlar ta'siriga bardoshlilikini ta'minlaydigan tabiiy immunitet eng asosiy rol o'ynaydi.

Sabzavotlarda ikkita immunitet bo'ladi: spesifik bo'lmagan va spesifik.

Spesifik bo'lmagan immunitet deganda ma'lum bir sabzavotlarning ba'zi kasalliklar bilan kasallanmasligi tushuniladi. Masalan, fitaftor kasalligi faqat kartoshka uchun xarakterli hisoblanadi, ildiz mevali sabzavotlar esa bu kasallik bilan kasallanmaydi. Spesifik bo'lmagan imunitet to'qimaning tuzilishi ularda fitonsidlar, xususan alkaloidlar, glyukozidlar, efir moylari, katexinlar borligi bilan

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D				
Узг	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

izohlanadi. Bu moddalar bakteriyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan moddalar hisoblanadi.

Spesifik immunitet esa ma'lum bir sabzavotlar navlarining kasalliklarga u yoki bu darajada bardoshlilik bilan tavsiflanadi. Masalan, sabzavolarning ba'zi navlarida kasalliklarga kurashish darajasi yuqori, ba'zilarida esa juda past bo'ladi.

Mexanik jarohatlarga va mikroorganizmlarga qarshi turish qobiliyati yaxshi o'rganilgan mahsulot kartoshka hisoblanadi. Masalan, kartoshkalarning jarohatlangan joyida avvaliga suberin moddasini o'ziga singdirgan 2–3 qavat hujayra hosil bo'ladi, unday keyin suberin tagida ko'p qavatli 6–7 qavatdan iborat jarohat peridermasi hosil bo'ladi. Ana shu jarohat peridermasi mikroorganizmlarning o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Kartoshka uchun suberin va jarohat peridermasi hosil bo'ladigan eng qulay sharoit 20°C harorat va havoning nisbiy namligi 90 % bo'lgan sharoit hisoblanadi. Lekin, bu erda havo kislorodi erkin ta'sir etib turishi kerak. Ana shunday sharoitda 7–10 kun ichida jarohat peridermasi hosil bo'lishi to'liq tugallanadi. Kartoshkani 10°C da saqlaganda esa bu periderma birmuncha sekinlik bilan hosil bo'ladi.

Shunday qilib, sabzavotlarga mikroorganizmlar ta'sir ko'rsatmasligi uchun kompleks tadbirlarni qo'llash talab etiladi.

Sabzavot to'plamlaridagi tirik komponentlar ma'lum sharoitlarda o'z xayot faoliyatini davom ettirib, ularda nafas olish va ko'payishi kuzatiladi. Shuningdek quruq moddalar kamayishi aniqlangan. Sabzavotlarni saqlash texnologiyasi ro'y beradigan jarayonlarni umumiy ravishda boshqarib, ko'ngilsiz xodisalarni rivojlanishiga yo'l qo'ymagan xolda mahsulotlarni talab xususiyatlarini o'z vaqtida yaxshilab borish bilan birga, ularni tegishli sharoitlarda saqlashni amalga oshiradi.

Undan tashqari xavoni yaxshi o'tkazmaydigan idishlarga, shuningdek, sabzavotlarni chuqur zich yopilgan xandoqlarda maxsulotlarga kislorodni qiyin yetib borishi sababli oksidlanishi oxirigacha bormaydi. Nixoyat saqlanayotgan maxsulotlarni to'la yetilishiga ayniqsa, so'nggi tinim davrida nafas olish jarayonining ba'zi zvenolarida uzilishi kuzatiladi. Natijada qandaydir oraliq bosqichda oksidlanish to'xtashi mumkin bu xollarda etil spirti, sirka aldegidi, sirka

Raxbar	Amanturdiyev I			001.002.069. BMI. 2018 y.	<i>Варак</i>
Bajardi	Yuldasheva D				
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо		Сана

va sut kislotalari kabi gala oksidlangan birikmalar to'planishi sababli anaerob nafas olishi ro'y beradi. Xamda moddalar almashinuvida fiziologik buzilish belgilari kuzatiladi.

3.5. Sabzavotlarni saqlash rejimlari

Kartoshka. Periderma to'qimasi xosil qilish uchun xarorat 7°C dan past bo'lmasligi va xavo deyarli sernam bo'lishi lozim. Kartoshka o'z muddatida yig'ishtirilishi va dastlab ikki uch hafta davomida saqlashda havo xarorati 10°C-18°C va nisbiy namlik 90-95 foiz, shuningdek, yaxshi shamollatib turilganda, yangi perederma to'qimasi tez xosil bo'ladi.

Dastlabki kunlarda mahsulotni 12°C-18°C da tutib, shamollatib turish lozim. Kartoshka saqlashdagi davolanish-bitish davri 10-18 kun davom etadi. So'ngra omborxonaning xarorati pasaytirilib, bir kecha kunduzda asta-sekin 0,5°C-1°C dan sovitishga erishiladi. Yetilgan va po'sti qotmagan, yig'ishtirish vaqtida biroz shikastlangan kartoshka tuganaklari uchun davolanish unchalik cho'zilmaydi. Ammo hosil namgarchilin sharoitida navlangan bo'lsa, uni loyli tuproqdan tozalash va ozroq quritish kerak. Yaxshi yetilgan, po'sti qotmagan va uringan tuganaklarning davolanish davribir muncha cho'ziladi. Davolash davridan so'ng xarorat kartoshka naviga qarab tahminan 2°C-4°C gacha pasaytirilsa, tuganaklarda modda almashinishi keskin susayadi.

Uyumlardagi xarorat har haftada bir marta tekshirib turiladi. Harorat uyum termometri yordamida kuzatiladi. Uyumlardagi harorat tashqi xavonikidan yuqori bo'lganda ventilyasiya quvurlari ochiladi. Boshqa paytlarda yopib qo'yiladi. Sovuq urmasligi uchun xavo tortadigan quvurlar berkitiladi. Uyum yoki xandakda xaroratning keskin ko'tarilishi tuganaklarning chiriy boshlaganidan dalolat beradi.

Doimiy kartoshka saqlovchi omborlar uyum va handoqlarga qaraganda afzaldir. Chunki ularda saqlash rejimi ma'lum darajada boshlanib turishga, saqlovchi mahsulot xolatini nazorat qilib borishi imkoni bo'ladi. Doimiy omborlar, asosan uch xil, yeo ustki, yarim chuqur va chuqur. Chuqur (yerto'la)

Raxbar	Amanturdiyev I				001.002.069. BMI. 2018 y.	Варак
Bajardi	Yuldasheva D					
Узе	Варак	№ хужжат	Имзо	Сана		

joylashtirilgani yer ustki va yarim chuqur omborlarga nisbatan shu jixatdan afzaldirki ularda kartoshka uchun mo'tadil harorat va nisbiy namlik bo'lib, natijada, isrof kam bo'ladi. Yarim chuqur va yer ustki omborlarining kamchiligi ular yer to'la omborlariga qaraganda qishda ko'proq sovib, baxorda esa tezda o'sib ketadi. Tashqi harorat 40°C - 42°C gacha va undan yuqori ko'tariladigan baxor va yozda suniy sovitiladigan omborlarda muqobil saqlash sharoiti yaratilib, kerakli xaroratni yuzaga kelishi mumkin. Harorat va nisbiy namlik kuniga ikki mata shamollashtirish oldidan yoki tamomlagandan keyin 30-40 daqiqa o'tgach o'lchanadi. Uyumlardagi harorat qayd qilib boriladi. Ombordagi xavoning nisbiy namligi 85-95 foiz va harorat 2°C - 3°C atrofida bo'lishi kerak.

Uyumlar saqlashda va yaxshi shamollagan kartoshka tuganaklari nafas olish jarayonida issiqlik ajralish tufayli o'z-o'zidan qizib ketishi mumkin. Issiqlik to'plangan sari, nafas olish sur'ati kuchayib, mikroorganizmlarning faoliyati jonlanadi va natijada, uyumlarda anaerob sharoit yuzaga keladi. Uyum ichida kislorod kamayishi sababli tuganak to'qimalari qorayi dimiqadi va tez chirish ro'y berdi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun saqlanayotgan kartoshka uyumdagi haroratni muntazam o'lchab turish va kuchaytirilganda zudlik bilan shamollatib hamda sovitish choralarini ko'rish lozim.

